

Ta'limning zamонавиy трансформатсиyаси
ZIYOLI YOSHLAR ZAMONAVIY JAMIYAT ASOSI SIFATIDA

Sayfiyeva Go‘zal

(Toshkent, O‘zbekiston)

TDIU, ilmiy rahbar:

Qodirova Feruza Qahramanovna

sayfiyevaguzal9@.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi zamонавиy jamiyatning ilmli, zukko, o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va ziyoli yoshlari haqida asosiy fikr, mulohazalar tasvirlangan. Shuningdek, aynan hozirgi davrda yoshlarning ya’ni kelajak avlodning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlar amalga oshirilayotgani hamda O‘zbekistonda yoshlar davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: sivilizatsiya, intellektual daraja, teologik ta’limot, parlament, ratifikatsiya, start-up loyihalar, innovatsion programmalar, chempionlar, strategik resurslar.

Summary: This article describes the main thoughts and opinions about the knowledgeable, intelligent, influential and intelligent youth of today's modern society. Also, information is provided that the necessary conditions are being implemented for the youth, i.e. the future generation, to show their potential, and that youth is one of the most priority directions of the state policy in Uzbekistan.

Key words: civilization, intellectual level, theological teaching, parliament, ratification, start-up projects, innovative programs, champions, strategic resources.

Men hayotda qat’iy ishonch bilan yashaydigan maslak shuki, aynan ilm-fan insoniyatni sivilizatsiya tomon yetaklab boradigan kuchdir. Tarixning qaysidir bosqichida muayyan sivilizatsiya o‘z zamonasining eng ilg‘ori bo‘lgan bo‘lsa, bunga hech bir istisnosiz, faqat va faqat ilm-fan borasida boshqalardan ilg‘or bo‘lgani evaziga erishgan. Aksincha, qaysidir tamaddun o‘z nufuzini yo‘qotib,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

oqibatda boshqalarga mute bo'lib, inqirozga yuz tutgan bo'lsa, u ham o'sha jamiyatda ildiz otgan ilmsizlik va johillik oqibatida shunday ahvolga tushgan. Zero, Beruniy hazratlari aytganidek, ilmga rag'bat yo'q joyda johillikka moyillik paydo bo'ladi. Xo'sh, ilmni yanada kengroq yoyish deganda nimani nazarda tutayapman o'zi?

Xorijda «Popular Science», ruslarda «Populyarnaya nauka» deyilguvchi bu narsa ilmiy tushunchalar haqida tushunarsiz terminologiyadan xoli ravishda, murakkab formulalarsiz, xalqchil tilda, ya'ni ommabop tarzda bayon qilishni nazarda tutadi. Ilmni jamiyatda keng yoyish orqali undagi ziyoli qatlam salmog'ining ortishiga erishiladi. Natijada biz shunchaki savodli jamiyat emas, balki ziyoli jamiyat barpo etamiz. Biz orzu qilgan kuchli fuqarolik jamiyatni ziyolilar qatlaming potentsiali ustiga barpo etilsa yaxshiroq bo'ladi albatta. Jamiyatda ilm-fanni ommalashtirish ayniqsa undagi yoshlardan qatlami uchun o'ta muhimdir.

Chunki aynan hozirgi yoshlarning intellektual darajasi butun boshli jamiyatning yaqin va uzoq kelajagini belgilab beradi. Boz ustiga qonun ustuvorligini anglaydigan, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, ongli ravishda, sidqidildan xalqqa xizmat qiladigan komil shaxsni shakllantirishda ham yoshlarga ilm-ma'rifatni singdirishga asoslangan tarbiya yaxshiroq samara beradi. Fikrimcha, bu usul har qanday boshqa usullardan ko'ra, aytaylik tadbirbozlikka asoslangan targ'ibot kampaniyalaridan va nuqlu teologik ta'limotga asoslangan tarbiyadan ko'ra samaraliroq bo'lgan bo'lar edi.

“Yangi O'zbekiston” ma'rifatli jamiyatini yaratishda yoshlarning o'rnini haqida gap ketganda bu satrlarni eslamasdan ilojimiz yo'q: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat”-deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Zero, yoshlar har qanday jamiyatning buguni va ertasidir. Tom ma'noda aytganda, biz yoshlar O'zbekistonning eng katta boyligi hamda bebafo xazinasi hisoblanamiz. Shu ma'noda O'zbekistonda yoshlar davlat

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakatimizda bizning huquq manfaatlarimizni himoya qilish, zarur shart-sharoitlar yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan bo‘lib, bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Bunga misol qilib, Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 14-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunini hamda 2017-yil 23-iyunda imzolagan “Yoshlar kelajagimiz davlat dasturi tog‘risida”gi farmonini keltirishimiz mumkin. O‘zbekiston aholisining qariyb 64 foizini yoshlar ya’ni, 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Bundan ko’rinib turibdiki, mehnat resurslarining yarmidan ko’pi yoshlardir. Ayni damda har uch rahbardan biri ham yoshlar hisoblanadi. Buning isbotini esa Oliy Majlis Senati huzurida tashkil etilgan Yoshlar parlamenti, Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati o’rniga tashkil qilingan “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” hamda endi unga yangi tarkib sifatida qo’shilgan “Yoshlar ishlari” agentligi misolida ko‘rshimiz mumkin.

Bugungi kunda yoshlarni rahbarlikka tayyorlash maqsadida ularning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratilib, ularni turli zararli illatlar ta’siridan himoya qilish hamda huquqbazarlikning oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etish maqsadida “Yoshlar-kelajagimiz” davlat dasturi doirasida “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” qoshida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg’armasi tuzildi. Yoshlar biznes tashabbuslarini start-up g‘oya va loyihalarini amalga oshirishlari uchun tijorat banklari orqali yillik foizli imtiyozli kreditlar va lizing xizmatlari ko‘rsatish hamda dastur doirasida “Yosh tadbirkorlar” coworking markazlari tashkil qilindi. Yangi O‘zbekistonning ma’rifatli jamiyatini yaratishda barcha o‘zgarishlarning negizi hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta’lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti umumiyligi qiyamatining yarmidan ko‘prog’ini tashkil etmoqda.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, yangi ochilayotgan va ochilgan davlat tashkilotlari hamda xususiy tashkilotlarda rahbarlik yoxud shu kabi lavozimlarni biz kabi yoshlar egallab turibdi. Shu o'rinda shuni ham aytib o'tishim lozim, aynan bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "El -yurt umidi" jamg'armasi ham yoshlarimiz, aynan ziyoli yoshlarimizning o'z bilimlarini chet el standartlariga mos ravishda yuksaltirib, yangi-yangi islohotlarni amalga oshirishlariga yordam bermoqda. Misol uchun ayni damda Navoiy viloyati Navoiy shahri 16-AFCCHO'I mактабning 2022-yil bitiruvchilaridan Muzaffarova Nigina va Nuriddinov Jalil ya'ni mening sinfdoshlarim ham "El-yurt umidi" jamg'armasining stipendiya tanlovlariida qatnashib, ayni paytda University of Minnesota hamda Arizona State University kabi Top 300 talik Universitetlar jadvalida 57- va 156- o'rinnlarda turuvchi Universitetlarda ta'lim olishmoqda. Zero, ular kabi ziyoli yoshlar zamonaviy jamiyatning asosidir.

Har bir yosh avlod o'z bilimi, o'z kuchi, o'z salohiyati, ilmi va innovatsion fikrlash uslublari orqali O'zbekistonimizga ya'ni o'z jamiyatimiz uchun barcha standartlarga javob bera oladigan texnologiyalar, programmalar va texnikalar kashf etishmoqda. Ayrim yoshlarimiz esa bilimlari va qobiliyatları orqali turli xil olimpiadalarga qatnashib turli o'rinnlar egallab kelishmoqda. Ayniqsa, shaxmat olimpiadasi haqida gap ketganda esa bularni esga olmaslikning ilojisi yo'q. 2022-yil Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) sentabr oyi uchun jahon shaxmatchilari reytingini e'lon qildi. Unda o'zbekistonlik grossmeyster Nodirbek Abdusattorov reytingini 2713 ga yetkazib, jahon reytingida 64-o'rindan 30-o'ringa ko'tarilgan edi. Bunga Nodirbekning Hindistonda bo'lib o'tgan jahon shaxmat olimpiadasi va Turkiya superligasida jami 22 ta o'yin o'tkazib, muvaffaqiyatga erishgani sabab bo'lgan. U yosh shaxmatchilar reytingidagi o'rnini ikki pog'onaga yaxshilab, 4-o'ringa chiqqan edi. FIDE'ning TOP-100 reytingida o'zbekistonliklar soni ilk marta 4 nafarga yetdi. Rustam Qosimjonov (2670) 72-o'rinda borayotgan edi. Olimpiada championlari — Nodirbek Yoqubboyev (2656) va Javohir Sindorov (2651) kuchli yuztalikka kirib, mos ravishda 89- va 92-o'rinnlarni band etishdi. Shu tariqa O'zbekiston shaxmat federatsiyasi FIDE reytingida 18-o'ringa ko'tarildi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

(+1). Bu yutuqlar esa also javobsiz qolmadi.

Davlatimiz rahbarining qaroriga asosan championlarimizning har biriga 600 million so‘mdan pul mukofotlari va Equinox avtomobili sovg‘a sifatida topshirildi. Avvalroq Prezidentimiz ularga davlat mukofotlari berish haqidagi farmonni imzolagandilar. Shu tariqa, mamlakatimiz mustaqilligining 31 yilligi arafasida 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida g‘olib bo‘lgan champion yigitlarimizga “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni, olimpiadada munosib ishtirok etgan qizlarimizga “Kelajak bunyodkori” medali hamda terma jamoamiz murabbiylariga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi” faxriy unvonini shaxsan Prezidentimizning o‘zlari topshirdilar. Bularning barchasi ilmli va ma’naviyatli yoshlarimizning jamiyatimiz rivojlanishiga qo’shayotgan hissalaridan biridir. Bugungi kunda buni baralla ayta olamanki, ular zamonaviy jamiyatimiz asosidir.

Shu o‘rinda aytish joizki, o‘zim ham shu yoshlar qatorida bo‘lib, endigina 1-kurs talabasi bo‘lishimga qaramay, o‘z soham bo‘yicha ya’ni bank sohasi bo‘yicha yangi loyihalarni amalga oshirish uchun ayni paytda rejalarim ustida ishlamoqdaman.

Xulosa o‘rnida, agar jahondagi rivojlangan mamalakatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, yoshlar ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanganini ko‘ramiz. Ta’lim va tarbiyaning asos hamda poydevori bu maktabdir. Shu jihatdan mакtablardagi ta’lim sifati zamon talablariga mos ravishda oshirib borilmoqda. Shu bois O‘zbekiston jamiyatining faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga “muammo” deb emas, balki yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaralmoqda. Axir, Yangi O‘zbekiston ma’rifatli jamiyatini yaratish biz yoshlarning qo‘limizda emasmi...?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1. Abdukhamedov, S., Makhmudova, A., & Mukhamadiev, A. (2022). Development of Tourist Routes and the Formation of Attractive Tourist Products. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(3), 129-132
2. Набиев, Д., & Эркаева, Г. (2021). Олий таълимда бошқарув фаолияти мустақиллигининг долзарб масалалари. Экономика и образование, (6), 193-199.
3. Suyunovich, T. I., & Adhamovich, A. S. (2019). Directions of activation of innovative activities of higher education institutions in forming innovative economy. BBK: 75.81 T 88, 235